
KITOB – MENING DO‘STIM



Tumanimizning chekka hududi - Sharqobod mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 15-sonli UO'T maktabida ta'lim muassasasi o'qituvchilar jamoasi hamda o'quvchilar o'rtasida "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi" bo'yicha qabul qilingan 781-sonli qarorning ijrosi, shuningdek, "Kitobxonlik haftaligi" doirasida tuman Axborot-kutubxona markazi mutaxassislari tomonidan targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi.

Tadbirda maktab o'qituvchisi Xudoydodova Firo'zaxon tomonidan o'quvchilarga Vatan, ona, aziz diyoyor hamda "Yangi O'zbekiston-yangicha dunyoqarash" mavzusida she'rlar o'qib havola etildi.

Mutaxassislar I. Djalolova, Z. Aliyevalar tomonidan "Kitob mening do'stim" mavzusida tadbir ishtirokchilariga ma'lumotlar yetkazildi va viloyatimiz bo'ylab o'tkazilayotgan haftalik ham ayni shu ezgu maqsadni ko'zlab amalga oshirilayotgani ta'kidlandi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2021-04-13 17:16:48